

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

DJUMASHEV ATADJAN ASHIRBAYEVICH

QURILISH TERMINLARINING SINXRON TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of Dissertation Abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Philological Sciences**

Djumashev Atadjan Ashirbayevich Qurilish terminlarining sinxron tadqiqi.....	3
Джумашев Атаджан Аширбаевич Синхронное исследование строительных терминов	25
Djumashev Atadjan Ashirbayevich Synchronous study of construction terms	50
E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati Список опубликованных работ List of published works	55

**ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI

DJUMASHEV ATADJAN ASHIRBAYEVICH

QURILISH TERMINLARINING SINXRON TADQIQI

10.00.01 – O‘zbek tili

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Andijon – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.PhD/Fil3700 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Z.M.Bobur nomidagi Andijon davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (<http://ilmiy.adu.uz>) hamda “ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	Sobirov Abdulxay Shukirovich Filologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponenlar:	Saidxonov Ma’murjon Muhammadjonovich filologiya fanlari doktori, dotsent
	Ermatov Ixtiyor Rizakulovich filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent
Yetakchi tashkilot:	Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/05.05.2023.Fil.60.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil “___” _____ soat _____ dagi majlisida bo‘lib o‘tadi (Manzil: 100174, Andijon sh., Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel.: (99874) 223-88-14; fax: (99874) 223-88-14; e-mail: agsu-info@edu.uz Z. M. Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___ raqam bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 100174, Andijon sh., Universitet ko‘chasi, 129-uy. Tel.: (99874) 223-84-30.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil “___” _____ kuni tarqatildi.
(2025-yil “___” _____ dagi ___ raqamli reyestr bayonnomasi).

D.A.Nabiyeva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, f.f.d., professor

F.F.Usmanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, f.f.d., dotsent

D.A.Nurmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, f.f.d., professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon tilshunosligida qurilish terminlari tarix, etnografiya, iqtisodiyot, tilshunoslikka oid jihatlar bilan tadqiq qilinmoqda. Bugungi kunda soha terminologiyasining leksik, semantik, pragmatik jihatdan tadqiq qilishga talab oshib bormoqda. O‘zbek tili terminologik tizimida qurilish terminlarining tutgan o‘rni, uy-joy bilan bog‘liq terminlarning mavzuiy guruhlari, shaxs nomini anglatuvchi terminlar, shuningdek, narsa-qurol nomini bildiruvchi terminlar, qurilish mahsulotlari nomini anglatuvchi terminlar, bundan tashqari qurilish jarayoni nomini bildiruvchi terminlar, qurilish tashkilotlari nomini anglatuvchi birliklar, shu bilan bir qatorda qurilish terminlarida butun-bo‘lak munosabati, qurilish terminlarida darajalanish hamda qurilish terminlarida ma‘nodoshlik (sinonimiya) hodisasi, o‘zbek tiliga rus tilidan o‘zlashgan terminlarning ishlatilish o‘rinlari, ingliz tilidan o‘zlashgan terminlarning nutqiy xususiyatlari hamda qurilish terminlarini to‘g‘ri yozish muammolari dolzarb sanaladi.

Dunyo tilshunosligida XXI asr yangi taraqqiyot davrini boshlab berdi. O‘zining milliy tillari taqdiri va rivoji ustida bosh qotirmayotgan xalqlar va millatlarning kelajakda taqdiri zabun bo‘lishini hayotning o‘zi ko‘rsatib turibdi. Ma‘lumki, boshqa sohalar kabi qurilish terminlarini tadqiqot obyektiga aylantirish muayyan tillarning etimologik, tarixiy taraqqiyoti hamda rivojlanishini ifodalashda xalqlarning etnik, tarixiy, siyosiy, milliy, ijtimoiy va til nuqtayi nazaridan o‘ziga xos jihatlarini yoritilishida alohida ahamiyat kasb etadi. Qadimda ishlatilgan qurilish terminlari, zamonaviy qurilish terminlari, o‘zlashgan qurilish terminlari, taraqqiyot natijasida o‘zgarayotgan qurilish terminlari hamda ularning tarjimai, yozilishi kabi jihatlar tilshunoslik uchun dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimiz mustaqilligi yo‘lida dadil olg‘a ketayotgan, “Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari” shiori ostida o‘z taraqqiyotining Uchinchi Renessansiga qadam qo‘ygan O‘zbekiston Respublikasi siyosatining bosh yo‘nalishlaridan birini ulkan bunyodkorlik va yaratuvchanlik ishlari tashkil etayotgani va mazkur jarayonlarning o‘zbek tilida zuhr berayotgani hech kimga sir emas. Jumladan, mamlakatimizda keng ko‘lamda olib borilayotgan qurilish-ta‘mirlash ishlarida xorij tajribasidan foydalanish, sohaga chet el investitsiyasi va materiallarining kirib kelishi o‘zbek tili qurilish terminologiyasini tubdan o‘zgarib ketishiga sababchi bo‘lmoqda. O‘zbek tilida *bolgarka, vodoemulsiya, dekor, germetika, gipsokarton, koler, fasad, laminat, plintus, fitting* kabi baynalmilal terminlar, *quruq qurilish qotishmalari, pol qoplamalari, burama mix, gulqog‘oz, plastik quvurlar, MDF eshiklar, ruhlangan va polimer qoplamali sovutib yoyilgan list, oq emal bo‘yoq, qizil emal bo‘yoq, ko‘k emal bo‘yoq, suvli emulsion akril bo‘yoq, qurilish kovshi, qurilish tyorkasi, valik, bo‘yoq shyotkasi (maklovitsa), yig‘ma temir-beton mahsulotlari* kabi birikmali leksik birliklar, “PROEKT STROY EKSPERTIZA” MChJ, “HOUZ ARCHITECTS” MChJ, “DELOVOY GOROD” SAVDO BELGISI, “NILEM PROEKT STROY” MChJ, “USTA MASTER” MChJ, “MEMORS” ko‘rinishidagi qurilish tashkilotlari nomlari faol qo‘llana boshlandi. Mazkur leksik birliklarining funksional-uslubiy, kognitiv xususiyatlarini aniqlash,

ularga lingvistik aspektidan turib baho berish bugungi kunning kechiktirib bo'lmaydigan vazifalari hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-fevraldagi PF-4958-son "Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'limni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi, 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori, 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi, 2019-yil 21-oktabrdagi PF-5850-son "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2022-yil 21-iyundagi PQ-289-son "Pedagogik ta'lim sifatini oshirish va pedagog kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori, 2019-yil 21-oktabrdagi o'zbek tiliga davlat tili maqomi berilganining o'ttiz yilligi bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi, 2021-yil 19-yanvardagi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga murojaatnomasi hamda mazkur faoliyatga tegishli me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, madaniy, iqtisodiy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirish innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Atamashunoslikka doir ilk tadqiqotlar XX asrning 50-yillarida avstriyalik olim E. Vuster tomonidan amalga oshirilgan. U zamonaviy terminologiyaning asoschilaridan biridir. Uning "General theory of Terminology"¹ asarida konseptual munosabatlar, terminlar va tushunchalar o'rtasidagi munosabatlar, tushunchalarning tabiati singari masalalar yuzasidan tegishli mulohazalar berilgan. J.Duley, L.Xoffman², P.Faber³ singari g'arb tilshunoslari tomonidan ham termin va terminologiyaning nazariy asoslari puxta ishlab chiqilgan.

D.S.Lotte⁴, L.Alekseyev, G.Vinokur⁵, S.Vinogradov, B.Golovin⁶, V.Danileko, R.Kobrin⁷, N.Kotelova, N.Shanskiy va boshqa rus tilshunoslarining asarlarida termin masalasi monografik aspektida o'rganilgan.

¹ Vuster E. (1974), Die allgeine Terminologielehre, ein Grenzgebiet zwischen Sprachwissenschaft, Logik, Ontologie, Informatik und den Sachwissenschaften. In: Linguistics 12 (119).

² Hoffmann L. Seven Roads to LSP Fachsprache. No.6/1-2.1984. – P. 28–38.

³ Faber P. Framing Terminology: A Process-Oriented Approach (Electronic resource) / Faber P., Linares C., Exposito M. // Meta: Translators' Journal. Vol.50. №4. 2005.

⁴ Лотте Д. Основы построение научно-технической терминологии: Вопросы теории и методики. – Москва: Издательство АН СССР, 1971.

⁵ Винокур Г. О некоторых явлениях словообразования в русской технической терминологии // Труды Московского института истории, философии и литературы. – М.: Литера, 1939. Т.5. Сборник статей по языковедению. – С. 3–54.

⁶ Головин Б. Лингвистика текста и лингвистика речи / Головин Б. // Термины в языке и речи: межвуз. Сб. – Горький: ГГУ, 1984. – С. 3–9.

O‘zbek tilshunosligida H.Dadaboyev o‘zbek tili terminologiyasi⁸, I.Shamsimuxamedov diplomatik⁹, A.Usmanxodjayev, O‘.Abilov, M.Turaxonovalar tibbiyot terminlari bo‘yicha izlanishlar olib borgan¹⁰.

Rus tilshunosligida N.A.Minakova tomonidan ilk bor tadqiqqa tortilgan bo‘lib, olim a rus tili qurilish terminlarining shakllanishi va rivojlanish tarixi, tuzilish jihatidan turlari, mavzuiy yo‘nalishlari bo‘yicha nomzodlik ishini himoya qilgan¹¹. “Qurilish terminlarining leksik-semantik, struktur jihatlarini”¹² L.N.Cherkasova, “Kognitiv, sistem va leksikografik tomonlari”¹³ N.A. Trofimova tomonidan tadqiq etilgan. G.D.Zaynuddinova arxitektura-qurilish termin-metaforalarini sistem-struktur va kognitiv-diskurs nuqtayi nazaridan ishlab chiqdi¹⁴.

N.N.Pavlova, O.A.Burnakova, N.N.Shevchenkolar qurilish terminlarining aktual masalalari bo‘yicha tegishli tadqiqotlari e‘lon qilingan¹⁵.

O.G.Guzenko¹⁶, M.M.Bekmurodov¹⁷, X.U.Xakiyeva¹⁸, A.Abdurahmonovlar¹⁹ qurilish terminlarining turli tizimdagi tillardagi holati, qiyosiy tadqiqi, matndagi holatlari yuzasidan tadqiqot ishlarini bajarishgan.

O‘zbek tilida 1984-yili Q.Sapayev “O‘zbek tilida qurilish terminlari” mavzusidagi nomzodlik ishini himoya qilgan²⁰. Mazkur dissertatsiyada qurilish terminlarining tematik tasnifi, tuzilishi va boshqa tillardan o‘zlashtirilishi masalalariga asosiy e‘tibor qaratilgan. O‘zbek tilida qurilish sohasida ishlatiladigan terminlarning kelib chiqishi, tuzilishi hamda ishlatilishi haqida tahlil qilingan. Bundan tashqari qurilish sohasida maxsus hamda murakkab terminlar ko‘p ishlatilish sababli bunday atamalarni to‘g‘ri tarjima qilish, o‘zbek tili

⁷ Кобрин Р. Лингвостатистический анализ употребления терминов нормативных словарей и ГОСТов в реальных научно-технических текстах / Кобрин Р. Пекарская Л. // Языковая норма и статистика. – Москва, 1977. – С. 265–277.

⁸ Dadaboyev H. O‘zbek terminologiyasi. O‘quv qo‘llanma. – Toshkent: Nodirabegim, 2020. – 144 b.

⁹ Shamsimuxamedov I. Diplomatik terminlar izohli lug‘ati. – Toshkent: Donishmand ziyosi, 2021. – 224 b.

¹⁰ Usmanxodjayev A., Abilov O‘., Turaxanova M. Tibbiyot atamaları lug‘ati. Toshkent: Donishmand ziyosi, 2022. – 153 b.

¹¹ Минакова Н. Особенности формирования и структура строительной терминологии русского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1985. – С. 24.

¹² Черкасова Л. Лексико-семантическая характеристика строительной терминологии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – М., 1998. – С. 25.

¹³ Трофимова Н. Терминология сферы Строительное технологии в русском языке XXI века: когнитивный, системный и лексикографический аспекты: Дисс. ... канд. филол. наук. автореф. – Томск, 2022. – С. 26.

¹⁴ Гайнутдинова Д. Термин-метафора архитектурно-строительного подъязыка: системно-структурный и когнитивно-дискурсивный подходы: Дисс. ... канд. филол. наук. – Белгород, 2012. – С. 191.

¹⁵ Павлова Н. Лексикографическая характеристика терминологии строительства в русском языке // Научный диалог, 2017. – № 3 (43). – С. 93–97; Буракובה О. Иноязычная терминология в современном русском языке // Вестник Оренбургского государственного университета. – 2014. – № 12 (164). – С. 92-98; Шевченко Н. Особенности употребления строительной терминологии в профессиональном и широком контекстах // Вестник Российского университета дружбы народов. Серия: Лингвистика. – 2018. – № 22 (4). – С. 802–808.

¹⁶ Гузенко О. Состав строительной терминологии и ее функционирование в специальных и неспециальных текстах разноструктурных языков: Автореф. Дисс. ... канд. филол. наук. – Саратов, 1991. – С. 19.

¹⁷ Бекмуродов М. Лексико-семантический и структурный анализ строительной терминологии: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Душунбе, 2002. – С. 26.

¹⁸ Хакиева З. Англоязычная терминология строительства и строительных технологий: структура, семантика и динамика развития: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Пятигорск, 2013. – С. 25.

¹⁹ Абдурахманова А. Лингвистическое моделирование строительной терминологии (на материале английского языка: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Москва, 2016. – С. 25.

²⁰ Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – С. 151.

grammatikasiga moslashtirish haqida o'z fikr-mulohazalarini yoritgan. Shuningdek, ushbu dissertatsiyada tilshunoslik, terminologiya, xususan, qurilish terminologiyasi bo'yicha ilmiy yondashuvlar ochib berilgan.

T. Tursunova me'morlik terminlarining leksik-semantik tadqiqi bo'yicha monografik ishini e'lon qilgan²¹.

Shuncha ishlar bajarilganiga qaramasdan, qurilish bilan bog'liq terminologik qatlamdagi sifat o'zgarishlari, ularning funksional-uslubiy, kognitiv xususiyatlari tadqiqotchilarning nazaridan chetda qolib kelayotgan edi. Alohida ta'kidlash kerakki, Mustaqillik yillarigacha qurilish sohasida asosan Rossiya tajribasi va qurilish uslublaridan foydalanib kelingan. Milliy me'morchilik an'alariga keng yo'l ochilmagan edi. O'z-o'zidan sohaga oid terminlarning aksariyatini ruscha-baynalmilal terminlar tashkil qilardi. Qurilish sohasiga chet el tajribasining kirib kelishi, xususan, binolarni barpo etishda geografik muhit, mintaqaviy iqlim sharoitlarining hisobga olinib boshlagani, keng, zamonaviy, qulay, ko'p qavatli inshootlarning barpo etilayotgani qurilish bilan bog'liq terminologik qatlamni keyingi sifat bosqichga ko'tardi: ko'plab yangi leksemalar paydo bo'ldi, oldindan qo'llanib kelganlarida semantik siljishlar sodir bo'ldi. Bular qurilish terminlarini sinxron asosda o'rganish zaruratini keltirib chiqardi.

Tadqiqot mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasining ilmiy tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Tadqiqot Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi Andijon davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "O'zbek tilining sistemaviy tadqiqi" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi. Dissertatsiyada qurilish bilan bog'liq terminologik qatlamda sodir bo'layotgan hozirgi jarayonlarga asosiy e'tibor qaratish, lingvistik va ekstralingvistik omillar yordamida hosil bo'lishi, noto'g'ri qo'llash bilan bog'liq holatlarni ilmiy asoslashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

qurilish terminlarini yig'ish, tizimlash, tasniflash;

qurilish atamalarining paradigmatic xususiyatlarini, jumladan, terminlar o'rtasidagi butun-bo'lak munosabati, darajalanish hamda ma'nodoshlik (sinonimiya) hodisasini tasnif qilish;

o'zbek tili terminologiyasidagi qurilish bilan bog'liq bo'lgan terminologik qatlamning tutgan o'rnini aniqlash;

terminlarning leksik-semantik guruhlarini aniqlash hamda ajratilgan leksik-semantik guruhlariga tegishli bo'lgan umumiy, xususiy belgilarini topish;

soha terminologiyasidagi o'z va o'zlashgan qatlam chegaralarini aniqlash;

xorijiy tillardan o'zlashgan terminlarning o'zbek tiliga o'zlashish qonuniyatlarini ochib berish, ularning strukturasi, qoliplarini aniqlash;

terminlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar yordamida hosil bo'lishini asoslash;

soha terminologiyasidagi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida "O'zbek tilining izohli lug'ati" va boshqa lug'atlardagi 2000 dan ortiq qurilish terminlari tanlangan.

²¹ Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 1987. – 130 б.

Tadqiqotning predmeti sifatida terminlarning leksik-semantik, funksional-uslubiy, kognitiv va derivatsion xususiyatlari belgilangan.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada lisoniy tavsiflash, leksik-semantik, qiyosiy-tarixiy, etimologik, statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

o‘zbek tilida qurilish terminologiyasining shakllanish tarixi, manbalari, funksional xususiyatlari, strukturaviy-semantik turlari, rivojlanishining asosiy tendensiyalari aniqlanib, lisoniy jihatlari sinxron tarzda ochib berilgan;

qurilish terminlarining paradigmatic xususiyatlari, xususan, terminologik sistemasiga mansub birliklar o‘rtasidagi partonimik munosabati tabiiy holdagi butun-bo‘lak munosabatlar sirasiga kirishi va aloqadorligi ilmiy asoslangan;

o‘zbek tiliga rus, ingliz va boshqa tillardan kirib kelayotgan qurilish terminlarining o‘zlashish qonuniyatlari, xususan, sinonimik munosabatlari, ifoda semasidagi farqlar mavjudligi dalillangan;

qurilish terminlarining sinxron holati tekshirilib, xorijiy, birinchi navbatda, ingliz tilidan o‘zlashayotgan terminlar va ularning o‘zbek tilida qo‘llanishi bilan bog‘liq xatoliklar aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilarda aks etgan:

hududiy qurilish terminologiyasi bo‘yicha to‘plangan materiallar, qo‘yilgan muammolarni tadqiq etish natijasida chiqarilgan xulosalar va umumlashtirilgan fikrlar o‘zbek tilshunosligi, xususan, terminologiyasi uchun muhim zaruriy, ilmiy ma‘lumot berishi, o‘zbek tili terminologiyasi bo‘yicha tadqiqotlar yaratishda manba bo‘lib xizmat qilishi, leksikologiya, onomastika, terminologiyasini o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berishi asoslangan;

terminlarning lingvistik tadqiqi natijalari terminshunoslik bo‘yicha izohli va imlo lug‘atlari yaratilishida, o‘zbek tili milliy korpusini shakllantirishda material va manba sifatida xizmat qilishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi qurilish terminlarining funksional-uslubiy va kognitiv xususiyatlari aniqlangani, tabiatidan kelib chiqqan holda xulosalar qilish imkonini berganligi, ularning asosligi, metodologik mukammalligi, shuningdek, qo‘yilgan masalalarning aniqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati qurilish bilan bog‘liq leksik birliklarning miqdori va sifatini aniqlash imkonini berishi, bugungi globallashtirish jarayonlarida o‘zbek tiliga shiddat bilan kirib kelayotgan qurilish terminlarini yig‘ish, tartibga solish bilan bog‘liq nazariy muammolarni hal etishga ko‘maklashishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”, “O‘zbek tili terminologiyasi”, “O‘zbek tili leksikologiyasi” singari maxsus kurslarni o‘qitishda, qurilish sohasi bo‘yicha lug‘atlar hamda o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishda, shu bilan bir qatorda, arxitektura va qurilish oliy o‘quv muassasalari jarayonlarida foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Qurilish terminologiyasining sinxron tadqiqi bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

qurilish terminlarining paradigmatic xususiyatlarini, ular o‘rtasidagi butun-bo‘lak munosabati, darajalanish hamda ma‘nodoshlik (sinonimiya) hodisasi

bo'yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazida 2022-2023-yillarda bajarilgan II-472110717 raqamli "Xizmat ko'rsatish obyektlari milliy nomlari interaktiv elektron platformasini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti huzuridagi Davlat tilida ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka oshirish markazining 2024-yil 8-oktabrdagi 1476-son ma'lumotnomasi). Natijada, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi qurilish obyektlarining tarixiy, milliy, madaniy jihatlariga e'tibor qaratgan holda ularning nom berish tamoyillariga xizmat qilgan;

qurilish terminlari, uning tarkibiy asoslarini, mazkur terminologiya sohasida qaysi jihatlariga ko'ra faol bo'lishi bo'yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2020-2023-yillarda amalga oshirilgan AM-FZ-201908172 raqamli "O'zbek tilining ta'limiy korpusini yaratish" mavzusidagi amaliy loyihada foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yil 26-noyabrdagi 04/1-3381-son ma'lumotnomasi). Natijada, qurilish terminlarining funksional-uslubiy va kognitiv xususiyatlarini birlashtirgan holda sohada qo'llanilishi, o'zbek tilida o'rinsiz qo'llanayotgan qurilish terminlarini aniqlash hamda qo'llash muammolari va yechimlarini o'rganishda foydalanilgan;

qurilish terminologiyasi o'zida qurilish va me'morchilik bilan aloqador tushunchalarni aks ettirar ekan, bevosita har bir davrdagi qurilish va me'morchilik talabi uning tarkibiy asoslarini, mazkur terminologiya sohasida qanday terminlar faol bo'lishini belgilab berish, terminlarni o'z holicha iste'molda qoldirish yoki ularga muvofiq muqobillarni topish va iste'molga kiritish, terminlar tarjimasini jarayonini oqilona yo'lga qo'yish, terminlar mohiyatini to'laligicha beradigan muqobillarni yaratish, bu borada tilshunoslikning samarali usullari bo'yicha olingan ilmiy-nazariy xulosalardan Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida 2021-2023-yillarda amalga oshirilgan PZ-202004165 raqamli "Umumiy o'rta ta'limning boshlang'ich sinf o'quvchilarida og'zaki va yozma nutqiy kompetensiyalarini rivojlantiruvchi elektron platforma yaratish" mavzusidagi amaliy loyihasida foydalanilgan (Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetining 2024-yilning 26-noyabrdagi 04/1-3382-son ma'lumotnomasi). Natijada, tilimizga kiritilayotgan birliklar soha ehtiyojlari uchun xizmat qilishi talab etiladi. Tilda ishlatilayotgan xalqaro sistemadagi terminlarni saqlab qolish, xalqaro termin tanlash tamoyillaridan uzoqlashish, dubletlarni o'z vaqtida tartibga solish kabi materiallar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 2 ta respublika, 2 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 9 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalarining asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta (shulardan 4 ta respublika, 1 ta xorijiy jurnallarda) nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya Kirish, uch asosiy bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, 133 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida mavzuning dolzarbligi asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, natijalarni amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **Qurilish terminlarining mavzuiy guruhlarini** deb nomlanadi. Bobning **“O'zbek tili terminologik tizimida qurilish terminlarining tutgan o'rni”** deb nomlanuvchi 1-paragrafida yurtimizning barcha mintaqalarida keng ko'lamda olib borilayotgan qurilish-ta'mirlash ishlari muhim ahamiyat kasb etayotgani, Mustaqillik yillarida yurtimizda bu kabi ishlar miqdor va sifat jihatidan butunlay yangi bosqichga ko'tarilgani ta'kidlanib, sohani rivojlantirish uchun Hukumat tomonidan tegishli Farmonlar va Qarorlar ishlab chiqilgani, ularda qurilish tarmog'ida boshqaruvning zamonaviy uslublarini shakllantirish, loyihalarni amalga oshirishda investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish va innovatsion yechimlarni joriy etishga yo'naltirilgan o'zgarishlarni amalga oshirishga urg'u berilayotgani ochiqlandi²². Shu bilan birga o'zbek tilida qurilish bilan bog'liq terminologik qatlamning yangi sifat bosqichiga ko'tarilgani izohlandi.

Qurilish terminologiyasida ilmiy terminlar bilan kasbiy terminlar aralash holda ishlatiladi. Masalan, *usta* leksemasi lingvistik nuqtayi nazarda termin hisoblanadi, ammo allaqachon terminlik bo'yog'ini yo'qotib, prototermi mavqeyiga o'tgan. Shunday sanalsa-da uni qurilish bilan bog'liq terminologik tizimdan chiqarib yuborish mantiqan to'g'ri bo'lmaydi.

Ma'lumki, respublikamiz hududida qadimdan me'moriy obidalar barpo etilgan. Natijada o'sha davrda ham *muhandis, naqqosh, toshtarosh* kabi mutaxassisliklar paydo bo'lgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, o'tmishda ham quruvchilarning mehnati alohida e'tiborda turgan. Hozirgi vaqtda texnik vositalarning keng qo'llanilishi, qurilish usullari va texnologiyalarining rivojlanishi tufayli yangi mutaxassisliklar paydo bo'ldi, ular tabiiy ravishda o'z nominatsiyalariga ega. Ilgari xuddi shu mutaxassis bir qator boshqa ishlarni bajargan bo'lsa, endi har bir quruvchi tor mutaxassislikka ega. Misol uchun, ilgari me'mor faqat qurilish loyihasini tuzish bilan cheklanib qolmagan, balki o'zi loyihalashtirgan binoning qurilishida bevosita ishtirok etgan. Hozirda me'mor (zamonaviy terminga ko'ra – *loyihachi-muhandis*) faqat binoning qurilish loyihasini tuzish, bino, inshoot chizmasi bilan shug'ullanadi, uning semantik tuzilishiga torayish sodir bo'ldi. O'tmishda *banno, toshtarosh, cho'bkor* kabi

²² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “O'zbekiston Respublikasi qurilish tarmog'ini modernizatsiya qilish, jadal va innovatsion rivojlantirishning 2021–2025-yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-6119-son Farmoni. Manba: <https://lex.uz/uz/docs/-5130468>

terminlar qo‘llanilgan bo‘lsa, hozir ular o‘rniga sohaga *pardozchi, sayqalchi* terminlari kirib keldi, *koshin, koshinkor, milliy naqsh, ustun* kabi terminlar semantikasida o‘zgarishlar ro‘y berdi. *Muhandis – injener, arxitektor – me‘mor, arxitektura – me‘morchilik* terminlari o‘rtasida tanlanish jarayonlari kechmoqda.

O‘zbek tilida qurilish terminologiyasi o‘z tarkibiga ko‘plab terminologik birliklarni qamrab oladi. Ko‘pgina qurilish terminlari umumiy leksikografiya qoidalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lishi, qurilish terminologiyasini monografik planda o‘rganish dolzarb va istiqbolli vazifa sifatida vujudga keldi.

Kuzatishlarimiz natijasida qurilish sohasida o‘zbek tilida yaratigan darsliklar, o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, lug‘atlarda qo‘llangan terminlarining muhim ahamiyat kasb etganini kuzatamiz. Shuningdek, qurilish va me‘morchilik terminlari bo‘yicha Q.Sapayev²³, T.Tursunova²⁴, O.To‘raqulovlar²⁵ tomonidan olib borilgan ilmiy-tadqiqot ishlari muhim ahamiyatga ega.

Qurilish terminologiyasini tadqiq va tasnif etishda quyidagi muhim jihatlarga e‘tiborimizni qaratishimiz lozim:

1) qurilish terminologiyasining shakllanish tarixini o‘rganish, qurilish terminlarining shakllanish manbalari va usullarini aniqlash;

2) qurilish terminologiyasidagi terminlarning asosiy strukturaviy-semantik turlarini, qurilish tushunchalarini ifodalovchi til vositalarini aniqlash;

3) qurilish terminologiyasining funksional xususiyatlarini aniqlash;

4) qurilish terminologiyasida terminlarning shakllanishi jarayonida hozirgi zamon talablarining ta‘sirini tahlil etish;

5) qurilish terminologiyasi nominatsiyasi vositalarini rivojlantirishning asosiy tendensiyalarini aniqlash.

Qurilish terminologiyasini o‘rganishning uslubiy asosi voqelik, tafakkur va til o‘rtasidagi dialektik aloqaning mavjudligi haqidagi zamonaviy fikrlash nazariyasi qoidalariga tayanadi. Bu boradagi tadqiqotlarda asosiy usul sifatida lingvistik tasvirlash usulidan foydalanish samara beradi.

Birinchi bobning **“Uy (turar-joy) bilan bog‘liq terminlarning mavzuiy guruhleri”** deb nomlanuvchi 2-paragrafida o‘zbek tilining lug‘at tarkibida tadqiq etilayotgan soha bilan bog‘liq *binu, inshoot, imorat, saroy, koshona, me‘mor* kabi yetakchi leksik birliklar faol qo‘llansa-da, ularning hech biri *qurilish* terminining o‘rnini bosa olmaydi. Mazkur termin o‘z qatlamga oid so‘zlarning eng qadimiylaridan biri sanaladi va xalqimizning qurilish sohasidagi tafakkurining o‘ziga xosligi, teranligidan dalolat berib turadi. XX asrdan boshlab qurilish ishlari kengaydi va bu holat soha terminologiyasida ham o‘z aksini topdi. Soha terminlarining o‘ziga xos leksik-semantik xususiyatlaridan kelib chiqqan holda ularni quyidagi ma‘no guruhlariga ajratish maqsadga muvofiq:

1. Uy (turar-joy) bilan bog‘liq terminlarning mavzuiy guruhleri. 2. Shaxs nomini anglatuvchi terminlar. 3. Narsa-qurol nomini bildiruvchi terminlar.

²³ Сапаев К. Строительная терминология узбекского языка: Дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1984. – С. 151.

²⁴ Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-семантик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 1987. – 130 б.

²⁵ Тўрақуллов О. Қўқон ва унинг атрофидаги қишлоқларда уй қурилишига оид сўзлар // Қўқон ДПИ Ўзбек тили ва адабиёти тўплами. 1971. – 55-74 б.

4. Qurilish mahsulotlari nomini anglatuvchi terminlar. 5. Qurilish jarayoni nomini bildiruvchi terminlar.

Zamonaviy qurilish terminologiyasida birinchi navbatda insonlar turar-joyi, yashash manzili bilan bog‘liq terminlar muhim o‘rin tutadi va diaxron nuqtayi nazardan *kapa, o‘tov, yurt, chodir, uy, qo‘nalg‘a, kulba, hovli, saroy, koshona* ko‘rinishida e‘tiborli paradigmatic qatorni tashkil etadi. Bu qatorga sinxron holatda *kvartira, kottej, villa, uchastka, dala hovli* kabi leksik birliklar kelib qo‘shiladi.

Qurilish bilan bog‘liq terminologik tizimda *joy* leksik birligi faolligi bilan ajralib turadi. “O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da unga shunday izoh berilgan: *Bino* [arabcha: *qurilish, inshoot, imorat*] Kishilarning yashashi, ishlashi va boshqa ehtiyojlari uchun quriladigan inshoot, ulkan uy, imorat²⁶.

1-jadval

Uy bilan bog‘liq leksemalarning qo‘llanish chastotasi jadvali

T/r	Leksik birlik	Diaxron holda	Sinxron holda	Og‘zaki so‘zlashuvda	Badiiy uslubda	Rasmiy uslubda	Publitsistik uslubda	Ilmiy uslubda
1	Uy	+	+	+	+	+	+	
2	Villa		+			+		+
3	Dacha		+	+				
4	Kapa	+		+	+		+	
5	Kvartira		+			+		+
6	Koshona	+	+		+		+	
7	Kottej		+			+		+
8	Saroy	+	+	+	+	+	+	+
9	Chek		+					
10	Hovli	+	+	+				

Xulosa qilib aytganda, uy bilan bog‘liq leksik-semantik guruh xalqimizning tarixini, tafakkurini, hayot tarzini har doim o‘zida yaqqol ifodalab kelgan.

Birinchi bobning “**Shaxs nomini anglatuvchi terminlar**” deb nomlanuvchi 3-paragrafida uy-joy qurish bilan shug‘ullanuvchi maxsus shaxslar guruhi – *quruvchilar* yetishib chiqqan va ular tilida alohida so‘zlar guruhi – prototerminlar shakllangan. Ular ichida shaxs nomini bildiruvchi prototerminlar salmoqli o‘rinni

²⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. I жилд. – Мадвалиев А. таҳрири остида. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2006. – 266 б.

egalaydi. Tadqiqdagi terminologik qatlamning yadro qismini *quruvchi* va unga turli uslublarda ma'nodosh bo'lgan *me'mor*, *usta/imoratsoz*, *duradgor//yog'och ustasi*, *tom ustasi//tomchi*, *poydevor ustasi*, *g'isht teruvchi//g'ishtchi*, *eshik ustasi*, *deraza ustasi*, *suvoqchi*, *bo'yoqchi* kabi leksemalar tashkil etadi. Sinxron planda quruvchi leksemasining faqat rasmiy, ilmiy, ba'zan badiiy uslublarda qo'llanishi kuzatiladi. Og'zaki so'zlashuv uslubida quruvchining qaysi mashg'ulot bilan shug'ullanishiga qarab ishlatilishi kuchli. Masalan, *betonchi*, *g'ishtchi*, *suvoqchi*, *bo'yoqchi*, *duradgor*, *yog'och ustasi*, *tom ustasi*, *payvandchi* kabi. *Quruvchi* leksemasi bunday tarmoqlanganda, kasb egalarining mashg'uloti ham konkretlashadi va ular muayyan leksik birlik bilan ifodalanadi, bunday leksemalarning aksariyati prototermin sanaladi. Aksariyat hollarda ularni ruscha variantida atash ommalashgan: *маляр*, *сварщик*, *каменщик* kabi. Hatto og'zaki so'zlashuv uslubida *bilding* (Qurilish sohasida “*Murod bildings*” qurilish kompaniyasi). Aslida, *bilding* inglizcha *build* [*bild*] 1. n. 1) *tuzilish; shakl, uslub*; 2) *qad-qomat*; 2. v. (*built*) 1) *qurmoq, tiklamoq*; 2) *yaratmoq*; 3) *ishonmoq, suyanmoq* > *builder* [*bilde*] n.1) *quruvchi*; 2) *duradgor* > *building* [*bildin*] n. *bin*, *imorat*²⁷ ma'nolarini bildiradi. “*Murad buildings*” o'zbek tili me'yorlariga to'g'ri kelmaydi. Rus tilida birgina *строитель* (*quruvchi*) terminining *marmarchi*, *mozaikachi*, *parketchi*, *kafelchi*, *metrosoz*, *koshinkor*, *oblitsovshik*, *gidrotex*, *shtukatur*, *kozonos* va shu kabi 64 ta sinonimi qayd etilgan. Kelajakda *prorab-votcher*, *aqli uy loyihachisi*, *aqli yo'l quruvchi*, *VIM menejer*, *3D dizayneri*, *qurilishda IT mutaxassisi* singari kasb egalarining paydo bo'lishi bashorat etilmoqda²⁸.

Demak, shaxs nomini anglatuvchi terminlar qurilish terminologiyasining o'zak qismlaridan birini tashkil etadi. a) qurilish yo'nalishlari uchun umumiy bo'lgan shaxs nomi terminlari: *muhandis*, *me'mor*, *arxitektor*, *loyihachi*, *prorab*, *puqratchi*, *tenderchi*, *usta*, *shogird*; b) beton quyish bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlari terminlari: *betonchi*, *beton aralashuvchi*, *shag'alchi*, *sementchi*; d) g'isht terish bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlari terminlari: *g'ishtchi*, *loychi*, *g'isht tashuvchi*, *kranchi*; e) eshik-deraza bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlari terminlari: *romchi*, *eshik ustasi*, *akfachi*, *deraza ustasi*; f) tom yopish bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlari terminlari: *tomchi*, *tunukachi*; *tarnov ustachi*; g) suvoq-bo'yoq ishlari bilan shug'ullanuvchi shaxs nomlari terminlari: *suvoqchi*, *dekorchi*, *bo'yoqchi*.

Birinchi bobning “**Narsa-qurol nomini bildiruvchi terminlar**” deb nomlanuvchi 4-paragrafida qurilish ishlari bir necha bosqichlarni o'z ichiga olgan murakkab jarayon sanaladi. Bu o'z navbatida sohada juda ko'plab mehnat qurollariga bo'lgan talab va ehtiyojlar sababli qurilish jarayonlariga yangi nomlar kirib kelmoqda. Zamonaviy qurilish terminologiyasida mazkur so'zning 1-, 2-ma'nolaridan keng foydalaniladi. Masalan, *plintus* – *lotincha* *plinthos* – g'isht, yassi toshtaxta *so'zlaridan olingan bo'lib*, *hozirda* binoning ichki devori bo'ylab pol bilan devor orasidagi tirqishni bekitish uchun qoqiladigan uzun ingichka taxta,

²⁷ Butayev Sh. Inglizcha-o'zbekcha, o'zbekcha-inglizcha lug'at. 80000 so'z va ibora. – Toshkent: O'qituvchi NMIU, 2013. – 130 b.

²⁸<https://www.ustabor.uz/ru/blog/samyevostrebovannye-stroitelnye-professii-v-budushchem..>

chaspak yoki devorning pastki turtib chiqqan joyi, ustunning to'rtburchak asosi²⁹ ma'nolarida ishlatiladi. Bularga narsa-qurol nomini bildiruvchi qurilish terminlariga *qolip, yigirma sakkizlik qolip, o'ttiz ikkilik qolip, qo'lqop, kaska, kirka, lom, drel* va hokazoni misol qilib olish mumkin.

Mazkur guruhni o'z ichida yana kichik guruhlarga ajratish maqsadga muvofiq. a) montaj, ya'ni o'rnatish asboblari nomni anglatuvchi terminlar: *kalit, bolg'a, sim kesgichlar, shtapel, mix, mix tortuvchi, lom; yig'ish qurollari*; b) yordamchi asboblari nomini bildiruvchi terminlar: *qisqichlar, ko'chma lampalar* va boshqalar.

Qurilish asboblari juda keng tarmoqqa ega bo'lib, kichik guruhlarga ajraladi:

– yog'och material nomini anglatuvchi terminlar: *taxta, fanerka, reyka* va b.

– temir, po'lat va shu kabi qattiq jismlardan yasalgan qurilish materiallari nomi terminlari: *armatura, mix, lom, shpingalet, dasta, xavfsizlik halqasi* va b.

– plastmassadan yasalgan materiallar nomi terminlari: *kaska, eshik, deraza, plintus* va b.

– ulash, biriktirish maqsadida ishlatiladigan narsa-qurol nomini anglatuvchi terminlar: *payvandlash apparati, yelimlar, qurilish skotchlari* va b.

– qirqish, ajratish, buzish maqsadida ishlatiladigan narsa-qurol nomini anglatuvchi terminlar: *elektr arra, tasha, bolta* va b.

– materiallarni qotirish, mustahkamlash maqsadida qo'llanadigan narsa-qurol nomlari terminlari: *kalit, otverka, qichqich* va b.

– bo'yash, pardoqlash bilan bog'liq narsa-qurol nomini bildiruvchi terminlar: *cho'tka, valik (rulolar), shpatel* va b.

– qurilish kiyim-bosh nomlarini anglatuvchi terminlar: *maxsus kiyim, rezinka qo'lqop, xavfsizlik kamari, qurilish qo'lqopi* va b.

Yuqoridagi *arra, qisqich, yelim, qo'lqop* kabi terminlar universal xarakterga ega bo'lib, qurilish-ta'mirlash ishlaridan tashqari qishloq xo'jaligida, sanoatda, ishlab chiqarishda hatto uy-ro'zg'or ishlarida qo'llaniladi.

Ota-bobolarimiz g'isht pishirishni yaxshi bilishgan va uni *qirpich/kirpich* deb atashgan. Mazkur termin slavyan tillariga *kirpich* tarzida o'zlashgan, o'zbek tilida esa forsiycha nom – *g'isht* bilan yuritila boshlangan. Mahmud Koshg'ariy *kerpich* – *g'isht, bishig' kerpich* – *pishgan g'isht* shaklida qo'llagan³⁰. Alisher Navoiy asarlarida ham *kirpich* shaklida keladi: *Mayxonada har sori bir mastki bosh qo'ymish, Kirpichlari go'yokim jonlarg'a vatanlardur*³¹. Me'morchilik terminlari bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borgan T.Tursunova ham u qadimda *kirpich* shaklida qo'llanganini yozadi³². Shuningdek, bu termin o'g'iz lahjasi (xorazm) *karvich* shaklida hozir ham keng iste'molda qo'llanadi.

Qurilish ishlari mashina va mexanizmlar yordamida amalga oshiriladi. Bu o'zbek qurilish terminologiyasini sezilarli boyitishga olib kelganini quyidagi mavzuiy guruhlarda kuzatamiz:

²⁹ “Ўзбек тилининг изоҳли луғати”. III жилд. – Тошкент: ЎЗМЭ Давлат илмий нашриёти, 2007. – 278 б.

³⁰ Махмуд Кошғарий. Девону луғотит-турк. 3-жилдлик. I жилд. – Тошкент: Фан, 1963. – 303 б.

³¹ Алишер Навоий асарларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Фан, 1983. – 118 б.

³² Турсунова Т. Меъморлик терминларининг лексик-грамматик тадқиқи. – Тошкент: Фан, 1987. – 27 б.

– qazish ishlari mashinalarni bildiruvchi terminlar: *ekskavator, gidravlik monitor, vibrator, dizel-bolg‘a, burg‘u, tebranishli bolg‘a* va b;

– beton va temir-beton ishlari mashina va mexanizmlarni bildiruvchi terminlar: *tosh maydalagich, tegirmon, elak, tosh kesuvchi, beton aralashtirgich, beton surg‘ich, agregat* va b;

– pardozlash ishlari mashina va mexanizmlarni bildiruvchi terminlar: *qorishma aralashtirgich, ohak aralashtirgich, elektr planer, koshin silliqlagich – mozaika silliqlash mashinasi, parket silliqlagich mashinasi, purkagich* va b;

– qurilish materiallarini tashish mashina va mexanizmlarni bildiruvchi terminlar: *tirkama, samosval, panel tashuvchi, to‘sin tashuvchi, konveer* va b;

– ishlov berish ishlarini bajarish terminlari: *yog‘och burg‘ulash, yog‘och burg‘ulash mashinasi, elektranda, beton qo‘porgich* va b;

– o‘rnatish, ko‘tarish va tushirish jarayonlari mashina va mexanizmlarni bildiruvchi terminlar: *ushlagich, domkrat, lift* va b;

– mehnat xavfsizligiga oid narsa-qurol nomlari: *dubulg‘a-shlem, himoya belbog‘i – himoya kamar, qo‘lqop, ko‘zoynak, qalqon* va b.

Birinchi bobning **“Qurilish mahsulotlari nomini anglatuvchi terminlar”** deb nomlanuvchi 5-paragrafida tilimizga jadal sur‘atlar bilan kirib kelayotgan qurilish terminlari haqida soz yuritiladi. Yangi kirib kelgan ibora, terminlarning nomlanishlari, *mezanina, skapula, veranda* kabi o‘nlab neologizmlarning qabul qilish, amaliyotga tatbiq etish masalalariga e‘tibor berishimiz hamda fan nuqtayi nazaridan shakllantirish maqsadga muvofiq. Ishda turar-joy, tabiiy tosh materiallari, o‘rmon xo‘jaligi, keramika materiallari, noorganik bog‘lovchilar, metall materiallar, issiqlik izolyatsiyalash materiallari, shisha va shisha buyumlar, polimer materiallar, yelimlar va gidroizolyatsiya, bo‘yoq va laklarni bildiruvchi terminlar va ularni yana kichik guruhga bo‘lib tahlil qildik. Quyidagi qurilish terminlariga e‘tiborimizni qaratamiz: *Shaber/ Scraper* rus va ingliz tillarida bo‘lib, o‘zbek tilida tarjimasini *qirg‘ich* deb berilmoqda, lekin qurilish termini sifatida ushbu so‘z qurilishga oid termin ma‘nosini to‘liq ifoda eta olmaydi. Shuning uchun biz rus tilida berilgan *shaber* terminini o‘zbek tiliga transliteratsiya usuli yoki *metall buyumlar sirtini tarashlab, tekislaydigan asbob* ma‘nosida anglaymiz.

Shunday qilib ko‘rib chiqilayotgan mavzuiy guruhdagi terminlar soni tez sur‘atlar bilan o‘sib bormoqda.

Birinchi bobning **“Qurilish jarayon nomini bildiruvchi terminlar”** deb nomlanuvchi 6-paragrafida bino qurish – bu keng ko‘lamdagi an‘anaviy va zamonaviy qurilish-ta‘mirlash ishlarini o‘z ichiga olgan murakkab, og‘ir va mashaqqatli mehnat jarayoni bilan bog‘liq terminlarni o‘z ichiga oladi. Xususan, qurilish jarayonida ham buni kuzatishimiz mumkin.

1.Yer tayyorlash jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 2.Loyihalash jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 3.Qoziq qoqish jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 4.Materiallar jamlash jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 5.Kotlovan, transheya kovlash. Beton quyish jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 6.Devor urish jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 7.Kanalizatsiya tortish, gaz, isitish tizimi jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 8.Elektr-montaj ishlarini bajarish jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 9.Tom yopish jarayonini bildiruvchi

prototerminlar. 10.Zinapoya o‘rnatish jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 11.Eshik va deraza o‘rnatish jarayonini bildiruvchi prototerminlar. Shiftni qoqish ishlarini bajarish jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 12.Suvash jarayonini bildiruvchi prototerminlar. 13.Pardoz berish jarayonini bildiruvchi prototerminlar.

Qurilayotgan obyekt xususiyatlariga ko‘ra sanoat, transport, qishloq, suv xo‘jaligi, uy-joy, kommunal, ijtimoiy-madaniy va boshqa qurilishlarga bo‘linadi. Bu o‘z navbatida qurilish jarayoni bilan bog‘liq bo‘lgan soha terminologiyasining shakllanishiga asos bo‘ladi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **Qurilish terminlarining paradigmatic xususiyatlari** deb nomlanadi. Bobning **“Qurilish terminlarida butun-bo‘lak munosabati”** deb nomlanuvchi 1-paragrafida qurilish terminologiyasi ham sistema ekanligini inobatga oladigan bo‘lsak, unda quyida qayd etilgan sistemalarga xos bo‘lgan barcha lisoniy, jumladan, paradigmatic munosabatlarning mavjud ekanligiga guvoh bo‘lamiz. Tilshunoslikda meronimiya termini dastlab rus olimi M.V.Nikitin tomonidan bo‘lak ma‘nosini ifodalash uchun fanga kiritilgan³³. O‘zbek tilshunosligida meronimiya termini tilshunos olimlar B. Qilichev³⁴ va A.Sobirovlar³⁵ tomonidan birinchilardan bo‘lib qo‘llaganlar. Ushbu hodisaga H.Ne‘matov, R.Rasulovlar³⁶ ham munosabat bildirishgan. Professor A.Sobirov meronimiya hodisasini quyidagicha tushuntiradi: “Uy” butun nomi poydevor, devor, pol, tom, eshik, deraza bo‘lak nomlaridan iborat. Ular ichidan “tom”ni ajratib olib, unga aloqador so‘zlar asosida maydoncha hosil qiladigan bo‘lsak, to‘sin, shifer, shift, tarnov, cherdakka nisbatan “tom” butun nom bo‘lib qoladi³⁷.

So‘z birliklarida dennotativ va konnotativ bog‘lanishlarini ham ochib beradi; *arxitektura obyekt*i dennotativlik sathida, demak, meronimiya va partonimiyalar o‘zaro tobelik chegara maydonida birlashadi. Meronimlar leksik munosabatlarning yaxlit bir butunligini ifodalaydi va leksik birliklar orasidagi ierarxik bo‘lmagan munosabat, yaxlitning muhim qismlari bilan bog‘liq.

Partonimiya leksemalarning ma‘no guruhlarida butun-bo‘lak munosabatlarning ifodalanishga aytiladi. Partonimiya hamma soha terminlarida uchraydi. Masalan, *uy (butun) – xona (bo‘lak) – ayvon (bo‘lak) – koridor (bo‘lak)*. Bularda *xona (butun) – oyna (bo‘lak) – eshik (bo‘lak)* qatorida esa *xona* leksemasi bosh so‘z sanaladi. Qurilish terminlari sistemasida leksemalari o‘rtasida mazkur munosabat keng amal qilmaydi. Partonimik munosabatli paradigmalar sifatida *fasad – deraza, darvoza; devor – fundament; hovli – xona, darvoza* kabi paradigmalarni ko‘rsatish mumkin. Biroq bunday munosabatli paradigmalar soni qurilish terminlari sistemasida kam miqdorni tashkil etadi.

Qurilish terminlari sistemasiga mansub birliklar o‘rtasidagi partonimik munosabat tabiiy holdagi butun-bo‘lak munosabatlar sirasiga kirishi va aloqadorligi bilan ham alohida ajralib turadi.

³³ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 142 б.

³⁴ Қиличев Б. Ўзбек тилида партонимия. Филол. фан. номз. ... дисс. автореферати. – Тошкент, 1997.

³⁵ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 154 б.

³⁶ Неъматов Х., Расулов Р. Ўзбек тили систем лексикологияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 1995. – 128 б.

³⁷ Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 154 б.

Ikkinchi bobning “**Qurilish terminlarida darajalanish**” deb nomlanuvchi 2-paragrafida tilshunoslik tarixida *daraja* termini ko‘pincha til grammatikasidagi sifat darajalariga nisbatan qo‘llangani bois aynan grammatik yo‘l bilan hosil qilinuvchi sifat so‘z turkumining kategorial formasi hisoblangan sifatlardagi darajalanish tildagi leksik-semantik darajalanish bilan chalkashtirib yuborilishi muammoli holat. K.Kennedi va L.Maknelli tomonidan yozilgan maqola³⁸da ham darajalanuvchi sifatlarning gapda kesim vazifasida kelishi hamda ularning oldida qo‘llanuvchi daraja aniqlovchilari (*well, very, much, half, partially, completely, quite, really* kabi) haqida gap boradi.

O‘zbek tilshunosligida sifatlardagi darajalanish va uning o‘ziga xos xususiyatlari yuzasidan ilmiy izlanishlar olib borgan Z.M.Ma’rufov, A.Madrahimov, A.Xamitova, F.Is’hoqov, M.Qo‘ldoshev va Z.Mamarajabovanning ishlarida hamda o‘zbek tilidagi ayrim darslik va qo‘llanmalarda darajalanish hodisasi sifatida bevosita sifat so‘z turkumining kategorial formasi talqin etilgan.

A.Sobirov “Moddiy borliqdagi narsa va hodisalar uzluksiz xatti-harakatda bo‘ladi. Ular tashqi va ichki kuchlar ta’sirida muttasil ravishda o‘z shakl-shamoyilini o‘zgartirib turadi. Natijada olam qonuniyatlari asosida bitta maydonda bir narsaning turli-tuman shakllari paydo bo‘ladi. Aynan mana shu narsa avval real borliqda, so‘ngra tilda narsalarning bir-biriga nisbatan gradual holatida turishini ta’minlaydi”, – deb darajalanish hodisasiga munosabat bildirib, uning turlarini quyidagicha qayd etadi:

1. Maydon uzvlar o‘rtasidagi ichki darajalanish;
2. Leksik-semantik guruhlar yoki mazmuniy to‘dalar o‘rtasidagi darajalanish;
3. Moddiy borliqdagi asosiy tushunchalarni ifodalovchi mikromaydonlar o‘rtasidagi darajalanish”³⁹.

Tilimiz leksik tarkibidagi qurilish terminlari sistemasi uzvlari o‘rtasidagi munosabatlarning ba’zi ko‘rinishlari graduonimik xarakter kasb etishiga quyidagi leksemalar paradigmasida ham guvoh bo‘lish mumkin:

Eshik → *darvoza*

Bunda leksemalar o‘zaro “ma’lum obyektga kirish joyi”ning hajmi oshib borishiga ko‘ra shu tartibda joylashadi va *eshikdan darvozagacha* “hajm” belgisi muttasil ravishda o‘sib borishi kuzatiladi. Mazkur darajalanish sun’iy asosga ega darajalanishlar qatoridan o‘rin egallaydi. Chunki darajalanish munosabatida bo‘layotgan leksemalar sememasi borliqdagi denotatlari tabiatidagi darajalanishga monand holda namoyon bo‘lmoqda.

Shuningdek, *fortochka* → *deraza* qatori ham o‘zaro “hajm” belgisining ortib borishiga ko‘ra darajali munosabat hosil qilmoqda. Qurilish terminlari sistemasidagi darajalanish asosan quyidagi belgilarga ko‘ra kuzatiladi: *hajmiga ko‘ra; qo‘llanilishiga ko‘ra; sifatiga ko‘ra*.

Aytish mumkinki, lug‘aviy darajalanish turlari ham ierarxik xarakter kasb etib sistemaning barqarorligini ta’minlashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, har

³⁸Kennedy C., McNally L. Scale structure, degree modification and thye semantics of gradable predicates// Language. 2005, № 81(2). – P. 345–381.

³⁹Собиров А. Ўзбек тилининг лексик сатҳини системалар системаси тамойили асосида тадқиқ этиш. – Тошкент: Маънавият, 2004. – 148 б.

bir kichik guruhni tashkil qilayotgan paradigma a'zolarining funksional-uslubiy jihatiga ko'ra ham turli darajalarda bo'lishi xarakterli xususiyat hisoblanadi. Mazkur tizim tarkibida graduonimiyaning ham atash ma'nolari, ham ifoda semalariga asoslanadigan ko'rinishlari kuzatiladi.

Ikkinchi bobning **“Qurilish terminlarida ma'nodoshlik (sinonimiya) hodisasi”** deb nomlanuvchi 3-paragrafida semantik sistemada eng ko'p uchrovchi munosabat turlaridan biri sinonimiya (ma'nodoshlik) hodisasi ekanligiga hamda sinonimiya leksemalararo ma'nodoshlik hodisasi sifatida tilshunoslik sohasida, xususan, o'zbek tilshunosligida ham atroflicha tadqiq qilingan lug'aviy paradigmalardan biri hisoblanadi.

